

Sayyohlar uchun ajoyib yangilik: Yangi Nukus-Oqtov-Nukus qatnovi!

2021 16 June

Joriy yilning 21-iyunidan boshlab «Uzbekistan Airways» AJ Nukus-Oqtov-Nukus yoʻnalishi boʻyicha haftaning dushanba kunlari muntazam qatnovlarni amalga oshiradi.

Nukus-Oqtov yoʻnalishi boʻyicha aviachipta narxi 1 093 000 soʻmdan boshlanadi, Nukus-Oqtov-Nukus boʻyicha esa 1 869 000 soʻmdan boshlanadi.

Bundan tashqari, Toshkent va Samarqanddan Oqtovga va Nukus orqali ortga toʻgʻridan-toʻgʻri tariflar joriy etilgan. Shuningdek, «Uzbekistan Airways» AJ Urganch-Oqtov-Urganch yonalishida ham haftasiga ikki marotaba – dushanba va juma kunlari muntazam qatnovlarni bajarayotganligini alohida eʼtirof etish joiz.

Narxlar, Oʻzbekiston Respublikasi MB kursi boʻyicha 16.06.2021-yil holatiga koʻra amal qiladi.

«Uzbekistan Airways» AJ Matbuot xizmati.